

CHET TIL MASHG‘ULOTLARIDA MADANIYATLARARO TA’LIMNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARIGA DOIR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352631>

Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsilar universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola chet til mashg‘ulotlarida madaniyatlararo ta’lim masalalariga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada madaniyatlararo mazmunga ega bo‘lgan so‘z va iboralarni xotirada saqlashning samarali usullari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: chet til, nemis tili, matn, madaniyatlararo ta’lim, lingvokulturologik.

FEATURES OF INTERCULTURAL EDUCATION IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES

Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich

PhD, Associate professor of Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

ABSTRACT

This article is devoted to the issues of formation of the linguo-cultural competence in foreign languages classes. Also, in the article it is proposed productive methods of preserving German words and expressions in memory are.

Keywords: foreign language, the German language, training, competence, linguocultural.

Ma’lumki, chet tillarni o‘rganish jamiyatimizda muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi. Madaniyatlararo ta’lim jarayonida ko‘p tillarni bilish, ya’ni “poliglot”(ko‘p tillarda so‘zlashuvchi) bo‘lish katta ahamiyatga ega. Albatta ta’lim oluvchilar chet til mashg‘ulotlarida o‘rganilayotgan tilga oid lingvokulturologik kompetentsiyalarni shakllantirishga harakat qiladilar, ya’ni mashg‘ulotlarining dastlabki bosqichidan boshlab o‘rganilayotgan tildagi lingvistik birliklar orqali so‘z boyligini oshirishga harakat qiladilar. Natijada ular tomonidan xotiraning imkoniyatlaridan unumli foydalanish imkoniyati ortib boradi.

Oxirgi vaqtida biz asosan turli mazmundagi vazifalarni elektron gadgetlar, ya'ni hayotimizning deyarli sohalariga kirib borayotgan elektron qurilmalar orqali bajarishga harakat qilyapmiz, natijada insoniyat ma'lum ma'noda zamonaviy kompyuter texnologiyalariga tobe bo'lib qolmoqda. Misol uchun, kundalik hayotda telefon nomerini esda saqlash yoki bo'lmasa biron-bir joyga yetib olish uchun intuitsiya(ichki his)ni ishga solish shart emas, ya'ni ularni biron-bir daftarga yozib olish ehtiyoji paydo bo'lmaydi, chunki elektron uskunani tugmasini bosish orqali barcha kerakli ma'lumotlarni olib mumkin. Ta'lism oluvchilar chet til mashg'ulotlari jarayonida turli mavzularga oid yangi so'zlarni o'rghanish ehtiyoji paydo bo'ladi va bundan qochib bo'lmaydi. Shunday ekan, biz mazkur maqolada yangi so'zlarni xotirada saqlashning samarali usullariga to'xtalib o'tamiz.

Dastlab chet tilda og'zaki va yozma muloqot qilish uchun qancha so'z bilish kerakligini aniqlash lozim. Albatta ta'lism oluvchilar ikki tilli lug'atni qo'lga olishlari bilan vahimaga tushadilar, chunki unda yuz ming va undan ortiq so'z va leksik birliklar mavjud, lekin biz ularni barchasini egallashimiz kerakmi, yo'q albatta. Taxminan 500ga yaqin so'z bizning og'zaki nutqimiz uchun yetarli. Yangi so'zlarni qisqa muddatda egallashning uchun biz kontekstdan foydalanishimiz lozim, ya'ni har bir so'zning tarjimasini qayd qilishimiz shart emas, aksincha chet tildagi yangi so'zni kontekstda idrok qilishga ta'lism oluvchilarni o'rgatishimiz maqsadga muvofiq. Misol uchun, nemis tilida vaqt (die Zeit) so'zini o'rghanishimiz kerak bo'lsa, u bilan bog'liq barcha iboralarni qo'llashimiz lozim, ya'ni:



- die Zeit drängt;
 - kommt Zeit, kommt Rat;
 - die Zeit bringt Rosen;
 - die Zeit heilt (alle) Wunden;
 - die Zeit ist der beste Arzt wer sich Zeit nimmt,
- kommt auch zurecht Gutes zu tun braucht wenig Zeit;
- wer auf die Zeit wartet, dem fehlt die Zeit.

Ma'lum bir mavzuga oid yangi so'zlarni o'rghanishda ularni iloji boricha daftarga qayd qilish maqsadga muvofiq. Aynan kompyuterga matnni terish emas, balki qo'l bilan yozish samarali usul deb hisoblaymiz. Agarga yozuv nutq faoliyat turiga to'xtaladigan bo'lsak, chet til o'qitish metodikasiga oid ilmiy adabiyotlarda yozuvga – “fikrni shakllantirish va ifodalash usuli” deb ta'rif berilgan [1, b. 287]. Bu nutq

faoliyatli orqali, birinchidan, aynan psixomotor xotiradan biz hozirgi kunda juda kam foydalanyapmiz. Vaholangki, u orqali yangi so‘zlarni o‘zlashtirish va ularning uzoq muddatli xotirada saqlash imkoniyati paydo bo‘ladi, ikkinchidan, mavzuga doir yangi so‘zlarni kontekstda esda saqlash, misol uchun biz ot so‘z turkumiga oid mashqlarni bajarishda, uni biron-bir predmet doirasining bir bo‘lagi sifatida xotirada saqlashimiz lozim, ya’ni ovqatlanish, kiyim-kechak, tabiatga oid so‘zlar va b. Sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarni o‘rganishda ko‘proq antonimik juftliklar orqali esda saqlash ko‘proq samara beradi, misol uchun, gut – schlecht, schnell – langsam, abenteuerlich – langweilig, lang – kurz.

Agarda fe’l so‘z turkumi to‘xtaladigan bo‘lsak, ularni iloji boricha matnda barcha zamon shakllari bilan qo‘llash orqali ta’lim oluvchilarga o‘rgatish maqsadga muvofiq, ya’ni ularni qay birini real nutqda ishlatish mumkinligini aniqlash uchun: Futurum: Ich werde geschäftlich nach Hamburg reisen; Präsens: Ich reise geschäftlich nach Hamburg; Imperfekt: Ich reiste geschäftlich nach Hamburg; Perfekt: Ich bin geschäftlich nach Hamburg gereist.

Va nihoyat uchinchidan, biz fikran tasavvur qila olishimiz kerak, ya’ni yangi so‘zni yozish orqali esda saqlash emas, balki biz uchun u rangga, ta’mga, hidga ega bo‘lgan qandaydir tushuncha bo‘lishi kerak, misol uchun biz anor so‘zini esda saqlash uchun, biz uni nordon yoki shirinligi va qizil rangda ekanligini esda tutmog‘imiz kerak. Shuningdek, talabalarga bu mevaning foydali taraflariga oid ma'lumotlarni yozuv orqali ifodalash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz va quyidagilarga e’tiborimizni qaratamiz:

Der Granatapfel:



- können bei Verdauungsproblemen helfen;
- halten länger jung und fit;
- sollen Krebserkrankungen vorbeugen;
- sind figurfreundlich.



Yoki bo‘lmasa, uyni xotirada saqlaydigan bo‘lsak, u qanday bo‘lishi kerakligini vizual tarzda tasavvur qilishimiz talab etiladi, ya’ni uning tuzilishi, ranggi va b.



Natijasida so‘z hajmli bo‘ladi.

O‘z o‘rnida uning tuzilishi bizning xotiramizda uzoq muddat saqlanib qolish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa ta’lim oluvchilarda katta qiziqish oyg‘otadi.

Shuningdek, nemis tilida talabalarga yozuvni o‘rgatishda grammatik mashqlar katta ahamiyatga ega. Misol uchun, sabab ergash gapli ko‘shma gaplarda(Kausalsätze): Aussagesätze: Ich mag Äpfel. Sie sind süß; Kausalsatz: Ich mag Äpfel, weil sie süß sind; Kausalsatz: Da Äpfel süß sind, mag ich sie/Äpfel. Bu misollarda talabalar mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar desak, xato bo‘lmaydi, ya’ni matn tuzishda bog‘lovchilar yordamida ega, kesim va ikkinchi darajali bo‘laklarni gapning turiga asoslanib to‘g‘ri qo‘yishni o‘rganishimiz mumkin. Va nihoyat oxirgisi nemis tiliga oid maqol va matallar orqali, ya’ni lingvokulturologik xususiyatlar[2] o‘qib tushunish(Leseverstehen) va o‘z ona tilisida muqobilini izlash orqali, misol uchun: nem.: So geht es in der Welt: der eine hat den Beutel der andere hat das Geld – o‘zb.: Holvani hokim yer, kaltakni yetim yer; nem.: Ost und West, daheim ist best – o‘zb.: O‘z uyim ulan to‘shagim; nem.: Ein Esel schimpft den andern Langohr – o‘zb.: Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular; nem.: Mit Fragen kommt durch die Welt – o‘zb.: So‘ragan Makkani topar; nem.: Wer sich vor dem Busch fürchtet, kommt nicht in den Wald – o‘zb.: Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas; nem.: Wer aushält, bleibt Sieger – o‘zb.: Sabr qilsang g‘o‘radin halvo bitar. Bu usul orqali nemis tiliga xos lingvokulturologik xususiyatlarni kuzatishimiz mumkin. Bu usuldan foydalanish orqali ta’lim oluvchilar nafaqat muqobil variantni izlashga, balki o‘rganilayotgan tildagi vositalarni o‘z ona tilisidagi turli so‘zlar bilan almashtirishga harakat qiladi. Buning natijasida ijodiy fikrlash jarayoni amalga oshadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hozirgi kunda chet tillarni o‘rganish va o‘rgatishda lingvokulturolojik kompetentsiya asosiy omil bo‘lmoqda. Ayniqsa, bu jarayonda yozuv nutq faoliyat turi katta ahamiyatga ega ekanligini yuqoridagi misollar orqali kuzatildi. Bunday yondashuv o‘z o‘rnida, an‘anaviylikdan voch kechgan holda, lingvokulturologik kompetentsiya orqali yangi g‘oyalarni izlash, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, desak xato bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
3. Khasanova, G. K. (2022). THE NEED FOR TECHNOLOGY IN THE DESIGN OF THE PEDAGOGICAL PROCESS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 20), 95-100.
4. Khasanova, G. K. (2022). THE ESSENCE AND SIGNIFICANCE OF THE CASE-STUDY METHOD IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 20), 778-782.